

O'ZBEKISTONDA SOVETLARNING SAVODSIZLIKNI TUGATISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Tuxmakova D.

TDPUning 1-kurs magistranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 30-40 yillarida O'zbekistonda sovetlarning savodsizlikni tugatish borasida amalga oshirilgan ishlari va bu borada o'zlarining mafkurasiga munosib vakillar yetishtirishga urinishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mafkura, sovetlar, savodsizlik, maktab, sho'ro hukumati, tadbirlar, xotin-qizlar, texnikumlar, maxsus kurslar, chalasavodlik.

Ma'lumki, XX asrning 20-yillari bolsheviklar siyosatining asosiy mezonlaridan biri o'lkada savodsizlikni tugatish va yerli xalq vakillarining bilim doirasini kengaytirishga qaratilgan edi. Sho'ro hukumati o'z siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, aholining bilim darajasini yuksaltirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirishga intilgan. 1919-yil 26-dekabrda RSFSR XKS tomonidan chiqarilgan Dekretga 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan o'qishni bilmaydigan har bir odam o'z xohishi bilan ona tili yoki rus tilida savod chiqarishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Bu tadbir aholining bilim darajasini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va ayni vaqtda, sezdirmay amalga oshirila boshlagan ruslashtirish siyosatining ko'rinishi ham bo'lgan. 1920-yilda mamlakat Maorif xalq komissarligi qoshida savodsizlikni tugatish komissiyasi tuzilib, mamlakatdagi barcha viloyat, shahar va tumanlarda bu komissiya sho'balari vujudga keltirilgan hamda savod chiqarish maktablari va kurslar tashkil etish bilan shug'ullangan.

Shuningdek, sovet hokimiyati XX asrning 20-yillarining o'rtalaridan boshlab mahalliy xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berdi va buning uchun bir qator savodsizligini tugatish maktablari, maxsus kurslar va texnikumlar tashkil qilina boshlangan. Mamlakatning barcha hududlarida bu siyosatning izchillik bilan amalga oshirish hukumatning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Birgina, Samarqand viloyatida xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari 20-yillarning o'rtalaridan boshlab keng ko'lamda boshlab yuborilgan. Viloyat xalq maorifi bo'limi 1925-yilning qishida Samarqand shahrining eski qismida musulmon ayol o'qituvchilarini tayyorlovchi 2 yillik maktab ochishni rejalashtirib, tashkil etilgan ayollar maktabi va savodsizlikni tugatish maktablari ayol o'qituvchilarni talab qilar edi. Shu sababli viloyatda qisqa muddatli o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari ochilib, 1926-yilda ularda 60 mishi tehsil olishga muvoffaq bo'lgan. 1925-yilning yoziga kelib, Samarqand viloyatida xotin-qizlar uchun 35 ta savodsizlikni tugatish

maktablarini ochish rejalashtirilgan. Aynan, 1924-1925 o'quv yilida viloyat bo'yicha jami 5000 kishi savodsizlikni tugatish maktablarini tamomlashga erishgan. Mazkur davrga kelib viloyatda jami savodsizlikni tugatish maktablariga jalb qilinganlarning miqdori 7000 kishidan oshib ketgan edi.

1925-1926-o'quv yilida Samarqandning eski shahar xalq maorifi bo'limi beshta birinchi bosqich maktabi ochishni rejalashtirgan va ulardan ikkitasini o'g'il bolalar, bittasini esa mahalliy yahudiylar, yana ikkitasini qizlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, 1926-1927-o'quv yilida viloyatda o'zbek xotin-qizlari uchun o'nta yangi savodsizlikni tugatish maktablari ochilib, ularda 189 kishi o'qitilgan, umumiy ta'lim maktablari va beshta oliy kurslarda 100 kishi, bitta yillik kurslarning uchta kurslarida 120 kishi, meditsina texnikumida esa 45 kishi tahsil olgan. Viloyatda 1927-1928-o'quv yilida esa ozodlikka chiqqan xotin-qizlar uchun o'n ikkita savodsizlikni tugatish maktablari ochilgan. Bundan shu narsa ma'lub bo'lmoqdaki, xotin-qizlar savodini chiqarish masalasiga sho'rolar hukumati alohida ahamiyat qaratgan. Bu imkoniyatdan samarali foydalangan mahalliy millat ziyolilari, qolaversa maorif tizimida xizmat qilayotganlar vatanparvarlar astoydil harakat qilib ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga bu davrda maktabdan tashqari ta'limga ham e'tibor katta bo'lib, u umumiy xalq ta'limining tarkibiy qismi hisoblangan va maktab ta'limiga, ob'yektiv va sub'yektiv omillar bois, jalb qilinmagan kishilarga mo'ljallangan ta'lim tizimi sifatida namoyon bo'lgan. Uning maktab ta'limidan farqi shunda ediki, barcha o'quv jarayonlari ya'ni tinglovchining bo'sh vaqti, uning qiziqishlari, ijtimoiy-demografik holati (ayol, erkak, o'smir va hokazo) barcha xususiyatlaridan kelib chiqib olib borilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim asosan maktab yoshidan o'tgan kishilar o'rtasidagi savodsizlik va chalasavodlikni tugatishga qaratilgan bo'lib, bunday kishilar yoki ishchi-xizmatchilar, maktabda o'qish yoshidan o'tganlar yoki eski maktablarda o'qib yangi ta'limga zimdan qarshilik ko'rsatayotgan, uning tartiblarini qabul qilishni istamayotgan kishilar bo'lgan. Sho'ro hukumati ularni bunday ta'lim maskanlariga majburlab jalb qilgan bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularni sovet mafkurasi bilan yaqindan tanishtirish edi.

Respublika aholisining umumta'lim darajasini oshirishning muhim yo'nalishi katta yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlik va chalasavodlikni tugatishdan iborat bo'lgan. Bu tadbir mamlakatda ancha faollik bilan olib borilgan. Chunki markazning "siyosiy rahbariyati sovet xo'jalik qurilishni jadallashtirishda odam zahiralaridan to'laroq foydalanish uchun savodsizlikni tezroq tugatishdan nihoyatda manfaatdor edi. Aholining umumiy savodxonligini oshirish, uni siyosiy jihatdan toblash yo'li bilangina bolsheviklar partiyasi, sotsializmning butun "front bo'ylab qat'iy hujum"ga o'tish vazifalarini hal qilish mumkin deb hisoblagan. Bundan ko'rinib turibiki, bolsheviklarning asosiy maqsadlari qadimiy va navqiron madaniy saviyaga ega

bo'lgan xalqni imkon qadar o'zining mafkurasiga bo'ysuntirishga intilgan.

Qolaversa, savodsizlikni tugatish maktablari o'quvchilari va umuman respublika bo'yicha savod o'rganganlarning shahar va qishloq tumanlari bo'yicha o'quvchilar sonining o'sishini quyidagi jadvaldan bilib olishimiz mumkin:

O'quv yili	Savodsizlikni tugatish maktablariidagi o'quvchilar soni	Shu jumladan		Savodli bo'lganlar	Shu jumladan	
		shaharda	qishloqda		shaharda	qishloqda
1929	300,4	115,3	214,4	241,3	80,4	150,3
1930	353,9	113,5	246,4	257,7	81,3	176,4
1931	590,3	81,9	508,4	234,5	81,1	153,4
1932	682,2	70,9	611,3	265,0	37,3	227,7
1933	610,8	67,4	543,4	336,1	41,9	294,2
1940	670,9	60,5	411,3	457,7	50,8	356,8
Jami	3208,3	509,5	2535,2	1792,3	372,8	1358,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, savodsizlarning o'qishga qamrab olinishi savod o'rganganlarga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p bo'lgan. Savodsizlikni tugatish maktablarining asosiy qismi respublikaning qishloq tumanlariga to'g'ri kelgan. O'qishdan qolib ketganlar soni ham ancha salmoqli bo'lib, 1143,9 ming kishini tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, sovet hukumati mazkur tadbirlarni amalga oshirib bu borada o'zining siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni ko'zlagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. Раҳимова М.Д. Деятельность Самаркандской областной партийной организации по ликвидации неграмотности среди женщин (1925-1927 гг.) // Труды СамГУ, новый серия, выпуск № 354. Самарканд, 1978, стр.20.
2. Правда Востока, 1925 года 27 мая.
3. Правда Востока, 1925 года 24 июля.
4. Директивы СК ВКП (б) и Постановления Советского правительства о народном образовании за 1917-1947 гг. – М.: 1948. - С.127.
5. Ҳасанов, Р., & Тайронов, Ё. (2021). THE ROLE OF LOCAL ENTREPRENEURS IN THE COMPOSITION OF THE NATIONAL PRESS IN TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 1(1).
6. ТАЙРОНОВ, Ё. (2021). “ТУРКИСТОН ВИЛОЯТИНИНГ ГАЗЕТИ” МАҲАЛЛИЙ БОЙЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИШДА МУҲИМ МАНБА СИФАТИДА. In *Uzbek Conference Publishing Hub* (Vol. 1, No. 01, pp. 136-139).

7. Ўз ССР Халқ таълими вазирлигининг архиви, 9-рўйхат. А-IX китоб. Саводсизликни тугатиш мактаблари бўйича ҳисобот маълумотлари. 1930-1933 йиллар
8. Минеев В.Н. Становление и развитие культурно-просветительной работы среди женщин Узбекистана (1918-1941 гг.) – Т.: Фан, 1990.
9. Камолов У.Х. Из истории ликвидации неграмотности взрослого населения Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1974.